

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

S.A.Qarshiboyev

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
Tayanch doktoranti

Taqrizchilar:

N.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

A.Sharafiddinov

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali “Umumiy psixologiya” kafedrası
dotsenti

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.
202__yil ____-sonli bayonnoma.

I. TUSHUNTIRISH XATI

Bugungi kunda psixologiya tarixi ta'lim tizimida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Psixologiya fanining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlarini bilish zamonaviy pedagog va rahbar uchun zaruriy kompetensiya hisoblanadi. Psixologiya tarixini o'rganish orqali mutaxassis o'tmish psixologik g'oyalarning zamonaviy ta'limga ta'sirini anglab yetadi, fanlararo bog'liqlikni ko'radi va o'z pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta oladi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarga psixologiya fanining tarixiy rivojlanishini, jahon va o'zbek psixologiyasining asosiy maktablari hamda yo'nalishlarini o'rganish imkonini beradi. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda, interfaol keys-stadilar va guruhli muhokamalar orqali tarixiy psixologik bilimlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Ushbu o'quv fanida tinglovchining o'quv yuklamasi 36 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 36 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 18 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 18 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Psixologiya tarixi.

2.2. Fan maqsadi: Tinglovchilarda psixologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishi haqida tizimli bilimlarni shakllantirish; psixologiya mustaqil fan sifatida tarkib topishining tarixiy ildizlari, O'zbekistonda va jahonda psixologiya rivojlanish yo'nalishlari va maktablarini tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish; psixologiya fanini xronologik jihatdan asoslay olish, o'tmish allomalari va buyuk psixologlarning ilmiy merosini kasbiy faoliyatda tatbiq etish hamda psixologik bilimlarni rasmiylashtirib taqdim etish kompetensiyalarini shakllantirish.

2.3. Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilim	Ko'nikma	Kompetensiya
Psixologiya tarixining predmeti, vazifalari, metodlari va asosiy davrlashtirilishi.	Psixologiya tarixini xronologik jihatdan tahlil qiladi va asosiy davrlarni farqlaydi.	Psixologiya tarixini o'qitishda tarixiylik tamoyilini kasbiy faoliyatda qo'llaydi.
Antik davr va o'rta asrlarda psixologik g'oyalarning shakllanishi (Demokrit, Aflotun, Arastu, Thomas Akvinat).	Turli tarixiy davrlar psixologik ta'limotlarini taqqosib tahlil qiladi.	Qadimgi va o'rta asr psixologik bilimlarini zamonaviy ta'lim amaliyoti bilan bog'laydi.
Sharq mutafakkirlarining psixologik g'oyalari: Ibn Sino, Ibn al-Haysam, Ibn Rushd.	Sharq olimlarining psixologik merosini tahlil qiladi va zamonaviy ahamiyatini baholaydi.	Milliy psixologiya merosini ta'lim-tarbiya jarayonida tatbiq etish kompetensiyasini qo'llaydi.
Ong haqidagi psixologik tasavvurlar va eksperimental psixologiyaning shakllanishi (Dekart, Lokk, Vundt, Fexner).	Eksperimental psixologiyaning paydo bo'lish bosqichlarini izohlaydi va asosiy vakillarini farqlaydi.	Ilmiy-eksperimental yondashuvlarni pedagogik tadqiqotlarda qo'llaydi.
Psixoanaliz (Freyd, Adler, Yung, Erikson) va bixeviorizm (Uotson, Skinner) ta'limotlari.	Asosiy psixologik maktablar g'oyalarini tahlil qiladi va ularning pedagogik ahamiyatini baholaydi.	Psixologik maktablar metodologiyasini ta'lim muammolarini hal etishda qo'llaydi.

Fan bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				Mustaqil ta'lim
		Hammasi	Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi			
			Jami	jumladan:		
			Nazariy	Amaliy		
1	Psixologiya tarixi: predmeti, vazifalari va metodlari	4	4	2	2	
2	Antik davr psixologiyasi	4	4	2	2	
3	O'rta asrlarda psixologiya muammolari	4	4	2	2	
4	Sharq mutafakkirlarining psixologik g'oyalari	4	4	2	2	
5	Ong haqidagi psixologik tasavvurlar	4	4	2	2	
6	Psixologiyaning eksperimental fan sifatida shakllanishining tabiiy-ilmiy shartlari	4	4	2	2	
7	Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi	4	4	2	2	
8	Psixologiya sohalarining rivojlanishi	4	4	2	2	
9	Psixoanaliz ta'limoti va bixeviorizm	4	4	2	2	
Jami:		36	36	18	18	

III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu. Psixologiya tarixi: predmeti, vazifalari va metodlari. Psixologiya tarixini o'rganishning ahamiyati. Psixologiya tarixining obyekti, maqsadi va vazifalari. Uning psixika haqida ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni. Psixologiya tarixining davrlashtirilishi: birinchi davr – psixologik bilimlarning falsafa va tabiatshunoslik fanlari tarkibida rivojlanishi (IV asr mill.avv. XIX asr o'rtalarigacha); ikkinchi bosqich – mustaqil fan sifatida rivojlanish (XIX asr o'rtalari–hozirga qadar). Psixologiya tarixi tadqiqot metodlari: tarixiy-taqqosiy, biografik, matn tahlili, arxiv metodlari. Qadimgi yozuvlarda psixologik g'oyalar. Sharq manbalari. Turli davrlarda psixologik g'oyalar talqini.

2-mavzu. Antik davr psixologiyasi. Antik davr psixologiyasida "jon" haqida materialistik ta'limotlar. Antik materializm cho'qqisi – atomistik materializm. Demokrit va Levkipning dunyoqarashlari. Epikurning jon haqidagi tasavvuri. Stoiklarning jonning 8 qismi va affektlar haqidagi ta'limoti; affektlar bilan kurashishga oid tavsiyalar. Iroda, xarakter va ozodlik muammosi stoiklarda. Aflotun

ta'limotida ruhning o'limdan keyingi hayoti haqidagi tasavvurlar. Arastu ta'limotida jon tushunchasi va tasnifi: o'simlik, hayvon, inson. Hissiyot va faoliyat haqida ta'limotlar. Antik davrdagi tibbiyot olimlari ta'limoti.

3-mavzu. O'rta asrlarda psixologiya muammolari. O'rta asr psixologiyasining umumiy xususiyatlari. O'rta asr Yevropasida falsafiy va psixologik tafakkurning asosi sifatida sxolastika. Xristian ta'limoti va sxolastikada imon va bilimning nisbati, ruhni tushunish. Inson tabiati va uning ichki dunyosini nominalizm va realizm oqimlarida talqin qilish. IV–XII asrlarda Yevropa psixologiyasining rivojlanishi. Thomas Akvinat ta'limoti – ruhni sxolastik talqin qilish. Okkam ustara ta'limoti. Duns Skottning nominalistik ta'limoti. Tajribaning idrokdagi o'rni haqida R.Bekon qarashlari.

4-mavzu. Sharq mutafakkirlarining psixologik g'oyalari. X–XII asr arabiyzabon mutafakkirlarining asarlarida ruh haqidagi psixologik bilimlar. Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning (980–1037) "Donishnoma", "Risolai shic", "Tib qonunlari" asarlarida psixologiyaga oid ma'lumotlar. Abu Ali ibn Sinoning umr davrlari psixologiyasi asoschisi sifatidagi o'rni. Ibn Sinoning tibbiyot psixologiyasiga oid qarashlari va ularning bugungi kun fani uchun ahamiyati. Ibn al-Haysam (Algazen) ko'rish va idrok haqidagi qarashlari. Ibn Rushd (Averroes) va uning Arastu ta'limotini izohlagandagi psixologik qarashlari.

5-mavzu. Ong haqidagi psixologik tasavvurlar. Ong psixika mezoni sifatida alohida belgilanishi. Dekart ta'limotining asosi: psixika inson ichki dunyosi sifatida. Dekart dualizmi (1596–1650) – «jon» va «tana» tushunchalari. Spinoza psixologiyasi (1632–1677). XVII asr falsafiy ta'limotlarda empirik psixologiyaning yuzaga kelishi. F.Bekon – empirik psixologiya asoschisi. T.Gobbs (1588–1679) ta'limotining asosiy g'oyalari. Jon Lokk (1632–1704) – empirik psixologiyaning otasi. G.Leybnitsning (1646–1716) psixofiziologik muammosi. Assotsianistik psixologiyaning vujudga kelishi: D.Berkli (1685–1753), D.Yum (1711–1776), D.Gartli (1705–1757). XIX asrda assotsiatif psixologiyaning rivojlanishi: J.Mill, A.Ben, G.Spenser. XIX asrning birinchi yarmida nemis empirik psixologiyasi va I.F.Gerbart psixologiyasi.

6-mavzu. Psixologiyaning eksperimental fan sifatida shakllanishining tabiiy-ilmiy shartlari. Sezgi organlari va miya fiziologiyasining rivojlanishi. Lokalizatsiya va antilokalizatsiya tendentsiyalarining o'zaro ta'siri. Refleks haqidagi ta'limotning rivojlanishi. Charlz Darvinning evolyutsion konsepsiyasi va uning psixika haqidagi ilmiy g'oyalarga ta'siri. Chegara psixologiyasi sohalari: psixiatriya, gipnologiya, pedagogika, tibbiyot. Mustaqil fan sifatida psixologiyaning birinchi sohalari: sezgi organlarining psixofiziologiyasi (G.Gelmgolts), psixofizika (E.Veber va G.Fexner), psixometriya (Donders). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa va Amerikada eksperimental psixologiyaning rivojlanishi. I.M.Sechenovning (1829–1905) psixologiya fani va psixika haqidagi yangicha tasavvurlari. V.M.Bexterevning (1857–1927) Rossiyada birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil etishi (1885).

7-mavzu. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi. Tabiatshunoslik fanlari va ilmiy tabiiy bilimlarning shakllanishi. XIX asrda sezgi

organlari va nerv sistemasi fiziologiyasining rivojlanishi. Veber va Fexnerning psixologiyada eksperimentni tatbiq qilishdagi hissalarini. Fexner «Psixofizika» fanining asoschisi sifatida. Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida vujudga kelishi va ochiq inqiroz davri (XIX asrning 60-yillari – XX asrning 1906–1910 yillari). Vilhelm Vundtning (1832–1920) psixologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirishdagi o'ri: Leypsig laboratoriyasi, introspeksiya metodi, elementar psixologiya dasturi. G.Ebbingausning (1850–1909) xotira haqidagi ishlari: unutilish egri chizig'i, mexanik va ma'noli yodlash.

8-mavzu. Psixologiya sohalarining rivojlanishi. Rivojlanish psixologiyasining paydo bo'lishi va bolalikni o'rganish xususiyatlari. S.Xoll va pedologiya. E.Meyman, K.Byuler va ularning tadqiqotlari. E.Krepelinning rivojlanish psixologiyasiga qo'shgan hissasi. Differensial psixologiyaning shakllanishi: Galton, V.Shtern, A.F.Lazurskiy. Sanoat psixologiyasi. Zoopsixologiya va hayvonlar ruhiyatini o'rganish. Xalqlar psixologiyasi va etnik psixologiyada tadqiqotlar: Spenser, Lazarus, Kavelin, Vundt. Asr boshidagi ijtimoiy psixologiya va uning rivojlanishi. E.Titchenerning strukturalizmi va uning psixologiyadagi o'ri.

9-mavzu. Psixoanaliz ta'limoti va bixeviorizm. Psixoanaliz ta'limoti (Z.Freyd): ong osti, libido, psixoseksual rivojlanish bosqichlari, mudofaa mexanizmlari. Individual psixologiya (A.Adler): yetishmovchilik kompleksi, sotsial hissiyot. Analitik psixologiya (K.Yung): arxetiplar, jamoaviy ong osti, intert va ekstravert. Ego psixologiyasi (A.Freyd). Neofreydizm: K.Xorni, V.Rayx, G.S.Sullivan. E.Frommning gumanistik psixoanalizi. E.Eriksonning shaxs rivojlanishining sakkiz davri. E.Bernning tranzaksion tahlili. Bixeviorizmning kelib chiqishi. E.Torndayk tadqiqotlari. Dj.Uotsonning bixeviorizm dasturi. O'rganish muammosi. Bixevioristik oqimlar: E.Tolmen, K.Xall. B.Skinning operant mustahkamlash nazariyasi. A.Banduraning ijtimoiy bixeviorizmi.

3.2. Amaliy mashg'ulot mazmuni

1-mavzu. Psixologiya tarixi: predmeti, vazifalari va metodlari. Psixologiya tarixini o'rganish metodlarini (tarixiy-taqqosiy, biografik, matn tahlili) amaliy qo'llash bo'yicha mashqlar bajarish. Psixologiya tarixining davrlashtirilishini sxema va jadvallar orqali tuzish. Turli davrlardagi psixologik g'oyalarni taqqoslab, ularni hozirgi ta'lim amaliyoti bilan bog'lash bo'yicha guruhli muhokama o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

2-mavzu. Antik davr psixologiyasi. Antik davr mutafakkirlarining (Demokrit, Aflotun, Arastu) psixologik g'oyalarini jadval asosida taqqoslab tahlil qilish. Arastu ta'limotidagi jon tasnifini zamonaviy psixologiya bilan bog'lash. Stoiklarning affektlar bilan kurashish tavsiyalarini hozirgi kungi stressni boshqarish usullari bilan solishtirib muhokama qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

3-mavzu. O'rta asrlarda psixologiya muammolari. O'rta asr psixologiyasida sxolastika va empirizmning o'ri bo'yicha keys-tahlil. Thomas Akvinat va R.Bekon qarashlarini taqqoslab guruhli taqdimotlar tayyorlash.

Nominalizm va realizm oqimlari ziddiyatini zamonaviy ta'lim falsafasi bilan bog'lash bo'yicha munozaralar o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

4-mavzu. Sharq mutafakkirlarining psixologik g'oyalari. Ibn Sinoning asarlaridan psixologik g'oyalarni ajratib tahlil qilish bo'yicha amaliy ishlar. Sharq va G'arb o'rta asr psixologiyasini taqqoslab muhokama qilish. Ibn Sinoning umr davrlari psixologiyasiga oid qarashlarini zamonaviy rivojlanish psixologiyasi bilan solishtirib taqdimotlar tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

5-mavzu. Ong haqidagi psixologik tasavvurlar. Dekart dualizmi va Jon Lokk empirizmini taqqoslab tahlil qilish. Assotsianistik psixologiyaning asosiy g'oyalarni jadval ko'rinishida tuzish. Empirizm va ratsionalizm ta'limotlarining zamonaviy ta'lim amaliyotiga ta'sirini muhokama qilish. I.F.Gerbart psixologiyasini hozirgi ta'lim nazariyasi bilan bog'lash bo'yicha amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

6-mavzu. Psixologiyaning eksperimental fan sifatida shakllanishining tabiiy-ilmiy shartlari. Veber–Fexner qonunini va psixofizika metodlarini amaliy misollar orqali o'rganish. Charlz Darwin evolyutsion nazariyasining psixologiyaga ta'sirini tahlil qilish. Psixologiyaning birinchi mustaqil sohalarini (psixofiziologiya, psixofizika, psixometriya) solishtirib jadval tuzish. I.M.Sechenov va V.M.Bexterevning hissalarini baholash bo'yicha guruhli muhokama o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

7-mavzu. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi. Vundtning Leypsig laboratoriyasi va introspeksiya metodini amaliy misollar orqali o'rganish. Ebbingausning unutish egri chizig'ini o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha amaliy mashqlar. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishidagi "ochiq inqiroz" davrini tahlil qilish va sabab-oqibat munosabatlarini guruhli muhokamada aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

8-mavzu. Psixologiya sohalarining rivojlanishi. Rivojlanish psixologiyasi, differensial psixologiya, sanoat psixologiyasi va ijtimoiy psixologiyaning shakllanishini solishtirib tahlil qilish. Psixologiya sohalarining bugungi ta'limdagi amaliy qo'llanilishini muhokama qilish. S.Xoll va pedologiya harakatiga tanqidiy baho berish. Differensial psixologiyaning kasbiy ta'limdagi ahamiyatini keys-tahlil asosida baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

9-mavzu. Psixoanaliz ta'limoti va bixeviorizm. Freyd, Adler va Yung nazariyalarini taqqosiy tahlil qilish bo'yicha guruhli ishlar. Psixoanalitik tushunchalar (ong osti, mudofaa mexanizmlari) ni pedagogik vaziyatlarga tatbiq etish. Bixeviorizmning asosiy tamoyillari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha keys-stadilar. Skinnerning mustahkamlash nazariyasini o'quv motivatsiyasiga tatbiq etish bo'yicha amaliy mashqlar bajarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Psixologiya tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nima?
2. Psixologiya tarixini davrlashtirishning asosiy bosqichlari qanday?

3. Psixologiya tarixi tadqiqotida qanday metodlardan foydalaniladi?
4. Psixologiya tarixi boshqa fanlar bilan qanday bog'liq?
5. Aflotun va Arastu psixologik g'oyalari o'rtasidagi asosiy farq nimada?
6. O'rta asr psixologiyasida sxolastika qanday rol o'ynagan?
7. Xristian ta'limoti va sxolastikada imon va bilimning nisbati qanday talqin qilingan?
8. Nominalizm va realizm oqimlarida inson tabiati qanday talqin qilingan?
9. R.Bekonning tajriba va idrok haqidagi qarashlari nimadan iborat?
10. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" va "Donishnoma" asarlarida qanday psixologik g'oyalar mavjud?
11. Ibn Sinoni umr davrlari psixologiyasining asoschisi deb atashga asos nimada?
12. Ibn al-Haysam (Algazen) va Ibn Rushd (Averroes)ning psixologik qarashlari nimalardan iborat?
13. Dekart dualizmi nima va u psixologiya tarixida qanday ahamiyatga ega?
14. Spinoza psixologiyasining Dekart ta'limotidan farqi nimada?
15. Jon Lokkni "empirik psixologiyaning otasi" deb atashga nima asos beradi?
16. Assotsianistik psixologiyaning vujudga kelishi va D.Berkli, D.Yunning hissalari qanday?
17. I.F.Gerbert psixologiyasida ruhning 2 ta asosda tashkil topishi deganda nima tushuniladi?
18. XIX asrda assotsiatif psixologiyaning rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan?
19. Psixologiyaning eksperimental fan sifatida shakllanishiga qanday tabiiy-ilmiy shart-sharoitlar ta'sir qilgan?
20. Psixofizika nima? Veber va Fexnerning psixologiyaga qo'shgan hissalari qanday?
21. Psixometriya nima va Dondersning tadqiqotlari nima bilan ahamiyatli?
22. Vilgelm Vundtning (1832–1920) psixologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirisdagi roli nima?
23. I.M.Sechenov va V.M.Bexterevning Rossiyadagi eksperimental psixologiyaga qo'shgan hissalari qanday?
24. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishidagi "ochiq inqiroz" davri nima?
25. Differensial psixologiyaning shakllanishida Galton, V.Shtern va A.F.Lazurskiyning o'rni qanday?
26. Alfred Adlarning individual psixologiyasi Freyd ta'limotidan qanday farq qiladi?

GLOSSARY

Arxetip - jamoaviy ong ostida mavjud bo'lgan qadimiy obrazlar.

Affekt - kuchli hissiy holat natijasidagi qisqa muddatli emotsional portlash.

Temperament - insonning tugʻma individual psixologik xususiyatlari majmui.
Xarakter - insonning barqaror individual xulq-atvor xususiyatlari.
Idrok - borliqdagi narsa va hodisalarni yaxlit aks ettirish jarayoni.
Sezgi - tashqi taʼsirlarning sezgi organlari orqali aks etishi.
Tafakkur - muammolarni fikrlash orqali hal qilish jarayoni.
Xotira - maʼlumotlarni eslab qolish, saqlash va qayta tiklash jarayoni.
Diqqat - ongning muayyan obyektga yoʻnaltirilishi va jamlanishi.
Motiv - faoliyatni yuzaga keltiruvchi ichki sabab.
Motivatsiya - inson faoliyatini boshqaruvchi motivlar tizimi.
Pedologiya - bolani kompleks oʻrganishga qaratilgan fan qarashlar va nazariyalarning tarixiy rivojlanishini oʻrganuvchi fan.
Psixika - inson va hayvonlarning borliqni aks ettirish faoliyati.
Ong - insonning borliqni anglash, tushunish va baholash qobiliyati.
Ruh - qadimgi va oʻrta asr psixologiyasida insonning ichki mohiyatini ifodalovchi tushuncha.
Metod - ilmiy tadqiqotni amalga oshirish usuli.
Tarixiy-taqqosiy metod - turli davrlardagi psixologik qarashlarni solishtirib oʻrganish usuli.
Biografik metod - olimlarning hayoti va faoliyati orqali ilmiy qarashlarni tahlil qilish usuli.
Matn tahlili - tarixiy manbalarni oʻrganish va sharhlash usuli.
Empirizm - bilimning asosini tajriba tashkil etadi deb hisoblovchi taʼlimot.
Ratsionalizm - bilimning asosini aql va tafakkur tashkil etadi deb qarovchi taʼlimot.
Dualizm - jon va tana alohida mavjud degan qarash.
Assotsiatsiya - ongdagi tasavvurlar oʻrtasidagi bogʻlanish.
Assotsianistik psixologiya - psixik hodisalarni assotsiatsiyalar asosida tushuntiruvchi yoʻnalish.
Introspeksiya - insonning oʻz ruhiy holatini kuzatish usuli.
Refleks - organizmning tashqi taʼsirga javob reaksiyasi.
Psixofizika - sezgi va tashqi taʼsir oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganuvchi fan.
Psixometriya - psixik jarayonlarni oʻlchash bilan shugʻullanuvchi yoʻnalish.
Evolyuksiya - tirik organizmlarning tarixiy rivojlanish jarayoni.
Bixeviorizm - inson xulq-atvorini tashqi reaksiyalar orqali tushuntiruvchi psixologik oqim.
Psixoanaliz - ong osti jarayonlarini oʻrganishga asoslangan yoʻnalish.
Ong osti - inson tomonidan toʻliq anglanmaydigan psixik jarayonlar sohasi.
Libido - Freyd taʼlimotida insonning ichki psixik energiyasi.
Arxetip - jamoaviy ong ostida mavjud boʻlgan qadimiy obrazlar.
Affekt - kuchli hissiy holat natijasidagi qisqa muddatli emotsional portlash.

V. O'QITISH VOSITALARI

1. Doska;
2. Flipchart qog'oz;
3. Qog'oz A4 formatli yetarlicha;

4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor);
7. Psixologiya tarixi bo'yicha illyustrativ materiallar va slaydlar to'plami.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Sirliyev E.N., Mirzayev O.S. Psixologiya tarixi. O'quv qo'llanma. – T., 2023. – 272 b.
2. Kosmach V.A. Istoriya psixologii. Drevnost' i Srednevekov'e: kurs lektsiy. – Vitebsk: VGU imeni P.M. Masherova, 2023. – 508 s.
3. Konstantinov V.V. Istoriya psixologii. Uchebnik dlya vuzov. – SPb: Piter, 2019. – 432 s.
4. Martsinkovskaya T.D., Yurevich A.V. Istoriya psixologii. Uchebnik. – M.: Akademicheskii proekt, 2020. – 521 s.
5. Morozov S.M. Istoriya psixologii: uchebnik. – M.: MPSU, 2019. – 376 s.

6. G'oziyev E. Psixologiya. – T., 2024.

7. Davletshin M.G. O'zbek psixologiyasi tarixi. – T., 2018.

Internet saytlar

1. <http://www.gumer.ru>
2. <http://www.voppsy.ru>
3. <http://koob.ru>
4. <http://edu.uz>
5. <http://ziyonet.uz>